

“RAQAMLI O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI VA UNI AMALGA OSHIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Aktam Xolov¹, Faxriddin Abdusalyamov²

¹ Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, 45 Islam Karimov Street, Tashkent, Uzbekistan. (aktam-xolov@mail.ru)

² Tashkent University of Applied Sciences, Gavhar Str. 1, Tashkent 100149, Uzbekistan (istiqbol1985@mail.ru)
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10471629>

Keywords: Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, raqamli strategiya, raqamli infratuzilma, Elektron hukumat, Raqamli iqtisodiyot, Raqamli texnologiyalar, Axborot texnologiyalari.

Abstract: Mazkur maqolada “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va uni amalga oshirishning mazmun-mohiyati yoritilgan. Shuningdek, raqamli infratuzilmani, raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat, Raqamli texnologiyalar milliy bozori va axborot texnologiyalari sohasida ta’lim berish va malaka oshirishni rivojlantirish masalalari sharhlangan hamda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini samarali amalga oshirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

1 KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi shakllanayotgan global axborot jamiyatida munosib o‘rinni egallashga intilmoqda. Ushbu maqsadlarga erishish uchun mamlakat Hukumati tomonidan O‘zbekistonda axborotlashtirish jarayonlarini faollashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tez sur’atlarda rivojlantirish, ularni iqtisodiyot va jamiyatning barcha sohalarida joriy etish hamda foydalanishning strategik ustuvorliklari belgilandi.

O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab, sanoati rivojlangan davlatlarda ijtimoiy sohalar, taqsimot va maishiy xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarida band bo‘lganlar soni ortib bordi. Asrimiz boshlarida esa ishlab chiqaruvchilar uchun ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasi bilan bog‘liq xizmatlar tez sur’atlarda o‘sdı. Xizmat ko‘rsatish sohasi bugunga kelib zamonaviy texnologiyalarga chambarchas bog‘lanib qoldi. Shu nuqtai nazardan tilimizga “Raqamli xizmatlar” jumlası o‘rnashdı.

2023 yil 24 may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarnı raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori e‘lon qilindi. Hujjat aholi va tadbirkorlik sub‘ektlariga raqamli xizmatlardan foydalanish uchun qulay sharoitlar yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, byurokratik tartibotlarnı qisqartirish, shuningdek, davlat boshqaruvi, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini hamda hududlarnı raqamli transformatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Davlat boshqaruvida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish jamiyatni axborot jihatidan keng ko‘lamli qayta o‘zgartirishning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu davlat boshqaruvi samaradorligini jiddiy ravishda oshirish, davlatning umuman jamiyat bilan hamda uning ayrim institutlari va fuqarolar bilan o‘zaro munosabatlarini optimallashtirish imkonini beradi.

2023-yil 20 mayda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish uchun mas‘ul xodimlari malakasini oshirish va reyting baholashni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 208-son qarori qabul qilingan. Qaror bilan 2023-yil 1-iyuldan respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish uchun mas‘ul xodimlarining malakasini uch yilda bir marotaba majburiy oshirish va ularni malakasini reytingli baholab borish tartibi joriy etilgan.

Shuningdek, mazkur qaror bilan xodimlarning malakasini oshirish tashkiliy-huquqiy shaklidan qat‘iy nazar, barcha turdagi ta’lim tashkilotlarida O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan o‘quv dasturlari asosida amalga oshirilishi belgilangan. Vazirlik tomonidan elektron hukumat tizimini joriy etish, raqamli iqtisodiyot, axborot xavfsizligini ta‘minlash, AKT infratuzilmasi tashkil etish hamda davlat organining faoliyatiga AKTni joriy etish yo‘nalishlari bo‘yicha namunaviy o‘quv dasturlari tasdiqlandi.

Respublikamizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida aholi uchun qo'shimcha qulayliklar va shart-sharoitlar yaratildi hamda telekommunikasiya xizmatlari, shu jumladan, axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Shu bilan birga, ushbu vazifalarni amalga oshirish doirasida davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, aholining zamonaviy telekommunikasiya xizmatlaridan barcha hududlarda to'liq foydalanish imkoniyatini ta'minlash, shuningdek, bino va inshootlarni loyihalashtirish jarayonida telekommunikasiya infratuzilmasining inobatga olinishi kabi muhim ishlarni muvofiqlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Davlat fuqarolik xizmatchilarida AKTga asoslangan zamonaviy axborot tizimlari va texnologiyalari haqida nazariy va amaliy tushunchalarni shakllantirgan holda ularga boshqaruv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari va axborot tizimlaridan samarali foydalanish, Internet tarmoqlari, elektron hujjat aylanishi, "elektron hukumat" tizimi axborot tizimi komplekslari, interaktiv davlat xizmatlari, davlat xizmatlarini an'anaviy shakldan interaktiv shaklga o'tkazish, "elektron hukumat" tizimini rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasi, elektron savdo, xavfsiz shahar, 4-sanoat revolyusiyasi, boshqaruvda AKT va "elektron hukumat" tizimlarining o'rni, elektron hukumat tizimini joriy qilish va undan samarali foydalanish, biznes jarayonlarni optimallashtirish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Metodologiya

Tadqiqotning metodologik asosini O'zbekiston davlatchiligi tarixini o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari, menejment fanining fundamental qonuniyatlari, O'zbekiston davlatchiligi tarixini yangi bosqichga doir tadqiqot olib borgan xorij va O'zbekistonlik olimlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son Farmonida belgilangan ustuvor vazifalar tashkil qiladi.

Mazkur tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, institusional tahlil, kontent tahlil, funksional tahlil, qiyosiy tahlil, analiz va sintez kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

2.2 Tahlil va natijalar.

Bugungi kunda jamiyat hayotining qaysi jabhasi bo'lmasin axborot-kommunikasiya texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunga muvofiq, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarida, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, shunday chora-tadbirlarning yangi bosqichini, ustuvor vazifalarni belgilab berishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni alohida ahamiyatga egadir.

Ushbu Farmon Respublikada raqamli industriyani jadal rivojlantirish, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, 2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan.


Farmon bilan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, 2020 - 2022 yillarda hududlarni raqamli transformasiya qilish dasturlari, 2020 - 2022 yillarda tarmoqlarni raqamli transformasiya qilish dasturlari, hududlardagi 29 ta namunaviy tumanlarda (shaharlarda) 2020 yilda va 2021 yil I choragi yakuniga qadar raqamli transformasiya qilish loyihalarini ko'zda tutuvchi "yo'l xarita"lari hamda strategiyasini amalga oshirish bo'yicha "yo'l xarita"lari tasdiqlanib, ularda amalga oshiriladigan tadbirlar, ularning muddatlari va mas'ul ijrochilari aniq belgilab qo'yildi.

Shu bilan birga, Farmon bilan Strategiyani amalga oshirishni muvofiqlashtirib borilishi yuzasidan O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri raisligida komissiya tuzildi.

Axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha mas'ul shaxsni belgilash maqsadida 2020 yil 1 noyabrdan boshlab barcha vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida amaldagi rahbar o'rinbosarlaridan biriga raqamlashtirish bo'yicha o'rinbosar (Chief Digital Officer) vakolatlari yuklatilib, ularning ustuvor vazifalari belgilab qo'yildi.

Farmon bilan tasdiqlangan Strategi iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat

boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta'minlash, shu jumladan elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, quyidagilar raqamli rivojlanishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan:



1.1-rasm. Raqamli rivojlanish strategiyasining ustuvor yo'nalishlari.

Shuningdek, Strategiyada har bir yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar belgilab olingan hamda unda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun maqsadli ko'rsatkichlar tasdiqlab qo'yilgan.

Ushbu Farmonda belgilangan vazifalarning ijrosi ta'minlanishi jamiyat hayotida raqamli texnologiyalar yanada keng tatbiq etilishiga hamda mamlakatimizning xalqaro reytingi yangi pog'onalarga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda hayotimizni Internet va raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etib bo'lmazligi barchaga ayon bo'lib qoldi. Butun dunyo hozirgi vaqtda raqamlashtirilgan olamga kirib bormoqda. Bu barcha sohalar bo'lgani kabi o'z navbatida davlat boshqaruvi sohasida ham qo'llanishi keng quloch yoyib bormoqda. Ko'pgina davlatlar tomonidan davlat darajasida raqamlashtirish borasida qonun, farmon, qaror, konsepsiya va boshqa hujjatlar qabul qilingan holda ishlar olib borilmoqda.

Davlat boshqaruvda raqamlashtirishni tatbiq etish borasida har bir davlat o'zining strategik loyihalarini olib bormoqda. Masalan, Qozog'istonda -Digitali Kazakstan[1], Rossiyada - Sifrovaya Rossiya[2], Buyuk Britaniyada - UK Digital Strategy[3] kabi boshqa davlatlarda ham raqamlashtirish bo'yicha loyihalar olib borilmoqda. Yurtimizda ham raqamlashtirish borasida ishlar olib borilmoqda, lekin ular tartibsiz shaklda raqamlashtirilgan.

Shuni alohida nazarda tutish kerakki, har bir tashkilot yoki davlat muassasasi tomonidan ishlab

chiqilayotgan axborot tizimi komplekslari tartibli ravishda faqatgina o'z manfaatlarini emas, balki boshqa davlat muassasalari axborot tizimlari bilan raqamli integratsiyani hisobga olgan holda ishlab chiqilsa katta samara beradi. Bunda albatta fuqaro va tadbirkorlar manfaatlarini ham hisobga olish lozim.

Masalan, 2013 yildan ishga tushgan my.gov.uz - yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatilayotgan interaktiv davlat xizmatlari soni oydan oyga oshib bormoqda [4].

Statistikaga qaraydigan bo'lsak, my.gov.uz - yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar soni, 2023 yilning avgust oyidagi ko'rsatkichlarga ko'ra 554.6 mingtani tashkil etmoqda.

1-jadval

my.gov.uz - yagona interaktiv davlat xizmatlari portali [5]

№	Statistika ko'rsatkichlari	2020 yil oktyabr	2020 yil noyabr	2021 yil dekabr	2023 yil avgust
1	Xizmatlar soni	211	213	303	468
2	Foydalanuvchilar soni	322	332.4	483.7	554.6
3	Murojaatlar soni	38 mln.	39 mln.	41.6 mln.	45.2 mln.

Bu ishlarni samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 dekabrda «Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5278-sonli Farmoni qabul qilindi [6]. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy bo'linmalari, ya'ni Davlat xizmatlari markazi tashkil qilindi.

O'zbekistonda dastlabki "Raqamli O'zbekiston - 2030" termini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ishlatilgan edi, ya'ni, "Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerak.

Shu asosda "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarur. Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o'stirish, korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar o'tkazgan tahlillar ham buni tasdiqlamoqda. Shuning uchun Hukumatga ikki oy muddatda raqamli iqtisodiyotga o'tish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish topshiriladi. Bu borada axborot xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zarur", fikrni alohida ta'kidlab o'tgan edilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturiga alohida to'xtalib o'tib, raqamlashtirish bo'yicha quyidagi fikrlarni aytib o'tdi "...kelgusida bu ishlarni tizimli tashkil etishga bosh-qosh bo'lishi uchun hukumatda – Bosh vazir o'rinbosari, vazirlik va idoralarda hamda hokimliklarda esa – alohida o'rinbosar lavozimlari joriy etiladi. Parlament ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida hukumat, tarmoq va hududlar rahbarlarining hisobotini muntazam eshitib borishi lozim." - deb ta'kidlagan edi.

"Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturining zahirida barcha sohalarni raqamlashtirish va ular orasidagi raqamli integratsiyani ta'minlash yotadi. Illinoys texnologiya instituti professor Richard Uorner aytganidek, bu ishni amalga oshirishda barcha soha vakillari ishtirok etishi lozim. Bu faqatgina AKT soha vakillarini ishi emas. AKT faqatgina "elektron hukumat" tizimini qurishni 20% nigina tashkil etadi. Qolgan 80%ini esa quyidagilarni samarali yo'lga qo'yish talab etiladi:

- davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish;
- jarayonlarni optimallashtirish;
- axborot ochiqligini ta'minlash;
- davlat xizmatlari sifatini oshirish;
- me'yoriy-huquqiy bazasini

takomillashtirish.

Barcha axborot tizimi komplekslari orasidagi raqamli integratsiyani to'liq yo'lga qo'shish borabirida biz asta sekinlik bilan raqamli iqtisodiyotga o'tamiz.

Ma'lumki, shu vaqtgacha raqamlashtirish bo'yicha yagona vakolatli organ yo'q edi. Bu sohadagi ishlarni Adliya vazirligi, Loyiha boshqaruvi milliy agentligi, Davlat xizmatlari agentligi, "UZINFOCOM" yagona integratori kabi tashkilotlar olib borishar edi. Bu esa o'z-o'zidan bu ishlarni jadallik bilan olib borishga ma'lum ma'noda to'sqinlik qilar edi. Mazkur ishlarning samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 aprelda «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4699-son qarori qabul qilindi [7]. Hujjatga muvofiq, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligida raqamli iqtisodiyot bilan shug'ullanadigan yaxlit tizim yaratildi va «Elektron hukumat», iqtisodiyot tarmoqlari va qishloq xo'jaligini raqamlashtirish, IT-parklarni tashkil etish va boshqarish kabi vazifalar to'liq vazirlik

vakolatiga o'tdi. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi:

– raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish sohasidagi vakolatli organ hisoblanadi;

– raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish doirasida axborot tizimlari, resurslari va boshqa dasturiy mahsulotlarni yaratish va joriy etish bo'yicha davlat organlari va tashkilotlarning loyihalari va texnik hujjatlari hamda normativ-huquqiy hujjatlari loyihalarini majburiy ekspertizadan o'tkazadi.

Hozirgi vaqtda davlat idoralarida mavjud 700 dan ortiq axborot tizimlarining atigi 30 foizi "Elektron hukumat" tizimiga ulangan. Davlat xizmati ko'rsatuvchi 80 ta idoraning atigi 27 tasi Davlat xizmatlari agentligiga integratsiya qilingan. Bu ham "elektron hukumat" tizimidagi muammolardan biri. 2020 yilning 5 oktyabr kuni Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Рақамли Ўзбекистон-2030" стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-6079-сонли Фармони қабул қилинди [8]. Фармоннинг pdf **формати ҳажми 804 бетни ташкил этиши** ҳам унинг қандай муҳим аҳамиятга эга эканлигини тасдиқлаб турибди.

"Elektron hukumat qurish "eski hammom, eski tos" qabilida ish ko'ruvchi juda ko'plab mansabdor shaxslarning to'g'anog'ini yorib o'tishdek katta sabr va matonat talab etiladigan jarayon. Turli mijozlarga birdek maqbul, shuning barobarida jamiyat va davlatga foyda keltiradigan mukammal tizimni shakllantirish uchun chinakamiga katta mehnat qilish kerak. Elektron hukumat qurish esa yanada murakkabroq: muhandislar, rahbarlar, yuristlar bir yoqadan bosh chiqarishlari shart."

Illinoys texnologiya instituti professor Richard Uorner

Farmonga ko'ra, Axborot texnologiyalari va kommunika-siyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan manfaatdor vazirlik va idoralar, biznes hamjamiyati va ilmiy doiralar vakillari hamda xorijiy ekspertlar ishtirokida ishlab chiqilgan «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasi ko'ra, 2020-2022 yillarda hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish doirasida quyidagilar amalga oshiriladi:

– aholi punktlarini Internet tarmog'iga ulash darajasi, shu jumladan, keng polosali ulanish portlarini 2,5 milliongacha ko'paytirish, 20 ming

kilometr optik-tolali aloqa liniyalarini qurish va mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish orqali 78 foizdan 95 foizga etkaziladi;

- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida 400 dan ortiq axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etiladi;

- 587 ming nafar kishini, shu jumladan «Bir million dasturchi» loyihasi doirasida 500 ming nafar yoshlarni qamrab olish orqali kompyuter dasturlash asoslariga o'qitish tashkillashtiriladi;

- iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar joriy etiladi;

- hududlarda hokimlar, davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining raqamli savodxonligini va malakasini oshirish, ularni axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi bo'yicha o'qitish uchun tegishli oliy ta'lim muassasalari biriktiri-ladi hamda ularning 12 ming nafar xodimi axborot texnologiyalari sohasida o'qitiladi.

- Raqamli transformasiya – raqamli texnologiyalarni barcha sohalarida integrasiya qilish jarayoni bo'lib, yangi xizmat va yangi mahsulotlar ishlab chiqishda tamoyillar, usullar, prinsiplar va texnologiyalarni o'zgartirishni talab qiladi. Raqamlashtirish zahirida raqamli transformasiya yotadi.

- Raqamli transformasiya – raqamli texnologiyalarni barcha sohalarida integrasiya qilish jarayoni bo'lib, yangi xizmat va yangi mahsulotlar ishlab chiqishda tamoyillar, usullar, prinsiplar va texnologiyalarni o'zgartirishni talab qiladi. Raqamlashtirish zahirida raqamli transformasiya yotadi;

- idoralar faoliyatining ochiq-lik va shaffof-likni ta'minlash, Internet tarmog'ida ochiq ma'lumotlarni va boshqa axborotlarni joylashtirib borish bo'yicha choralar ko'rish;

- idoraviy raqamli infratuzilmaning axborot xavfsiz-likni, shuningdek, elektron ma'lumotlar va hujjatlar-ning himoyasini ta'minlash.

Raqamlashtirish bo'yicha o'rinbosarlarning tegishli yo'nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtirish Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligiga yuklatilgan. Demak, bundan ko'rishimiz mumkinki davlat tomonidan iqtisodiyotni raqamlashtirishga katta e'tibor

qaratilmoqda.

Dunyoda raqamli iqtisodiyot o'sishining sur'atlari yiliga deyarli 20 foizni tashkil etmoqda. Taraqqiy etgan davlatlarda raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 7 foizga etgan. Ular hozirning o'zida raqamli iqtisodiyotning joriy qilinishidan juda katta naf ko'rishmoqda. Xususan, Amerika Qo'shma Shtatlari yiliga 400 mlrd. AQSh dollaridan ko'proq raqamli xizmatlarni eksport qilmoqda. Mazkur davlat yalpi ichki mahsulotining 5 foizidan ko'prog'i bevosita internet va AKT bilan bog'liq sohalariga to'g'ri keladi.

2025 yilgacha AQSh sanoatni raqamlashtirishdan qo'shimcha 20 trln. dollar daromad olishi kutilmoqda. Bunday iqtisodiy samaradorlik, ayniqsa, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish (10,3 trln. dollar), avtomobil sanoati (3,8 trln. dollar) va logistikada (3,9 trln. dollar) yuqori bo'lishi ta'kidlanmoqda.

Ekspertlarning fikricha, kelgusi 3 yilda iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali dunyodagi 22 foiz ish o'rinlari internet texnologiyalari yordamida ko'rsatilar ekan.

O'zbekiston ham "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini amalga oshirishi natijasida katta imkoniyatlarga ega bo'ladi, ochiq-lik va shaffof-lik ta'minlanadi va eng asosiysi korrupsiyani oldi olinadi. Bu ishlarni amalga oshirishda O'zbekiston iqtidorli dasturchilar va yuqori malakali davlat fuqarolik xizmatchilariga ega. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalar-
da, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan. Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integrasiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va keyinchalik ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy qilishni nazarda tutuvchi «Raqamli Toshkent» kompleks dasturi amalga oshirilmoqda. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrda "«Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-

Tarmoq va hududlarda raqamli iqtisodiyot hamda elektron hukumatni joriy qilish masalalari - rivojlanish va xalqimiz hayotini yaxshilash borasidagi ishlarimizning eng katta zahirini.

Sh.Mirziyoev

tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni imzolandi.

Ushbu farmon bilan quyidagilar tasdiqlandi. Ya'ni:

✓“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda uni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”;

✓ 2020-2022 yillarda hudud va tarmoqlarni raqamli transformasiya qilish dasturlari.

«Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasi iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta'minlash, shu jumladan elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Raqamli rivojlanish strategiyasining ustuvor yo'nalishlari:

- Raqamli infratuzilmani rivojlantirish
- Elektron hukumatni rivojlantirish
- Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish
- Raqamli texnologiyalar milliy bozorini rivojlantirish

• Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim berish va malaka oshirishni rivojlantirish

Raqamli infratuzilmani rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

✓ optik tolali aloqa liniyalari, xalqaro kommutasiya markazlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish orqali mintaqaviy va xalqaro telekommunikatsiya tarmoqlarining, O‘zbekiston Respublikasining chegaradosh Markaziy Osiyo davlatlari bilan tranzit aloqalarining o‘tkazuvchanlik qobiliyatini kengaytirib borish;

✓ taqdim etilayotgan xizmatlar hajmini oshirish, rezervlash, tizimlarning ishonchligini ta'minlash, shuningdek, aholi punktlari va ijtimoiy ob'ektlarni keng polosali xizmatlardan foydalanish imkoniyati bilan ta'minlash uchun ma'lumotlar uzatish tarmog'ini kengaytirish;

✓ mobil va yo'ldosh aloqa operatorlarining investitsion faolligini rag'batlantirishning qo'shimcha mexanizmlarini yaratish;

✓ mobil aloqa tarmog'ini 4G va 5G texnologiyasi bo'yicha rivojlantirish, Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar markazlarini beshinchi avlod aloqa tarmog'i bilan bosqichma-bosqich qamrab olish;

✓ barcha aholi punktlari va ijtimoiy ob'ektlarni optik va mobil keng polosali xizmatlardan foydalanish tarmoqlari bilan qamrab olish;

✓ avtomagistral va temir yo'llari, turistik ob'ektlarni mobil aloqa tarmoqlari bilan qoplashni ta'minlash;

Raqamli infratuzilmani rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

✓ Internet jahon axborot tarmog'iga ulanish tariflarini takomillashtirish va optimallashtirish;

✓ geografik joylashuvidan qat'iy nazar, fuqarolarning o'sib borayotgan axborotga ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun keng polosali simsiz va mobil texnologiyalarni yanada rivojlantirish;

✓ iste'molchilarga televizion signalni uzatish, er usti televizion eshittirish, kabel televideniesi, IP-televidenie, ma'lumotlar uzatish tarmoqlari, mobil aloqa, Internet texnologiyalaridan foydalangan holda teleradioeshittirish, televizion va radio xizmatlarining barcha turlarini to'liq qamrab olgan holda raqamli eshittirishni takomillashtirish;

✓ «bulutli» hisoblashlar asosida ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlarini rivojlantirish, foydalanuvchi talablariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining axborot resurslariga doimiy ulanishni ta'minlash;

✓ bozorning erkin rivojlanishi imkoniyatini saqlab, telekommunikatsiya sohasini rivojlantirish uchun sharoitlarni yaxshilash, biznes yuritish va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish uchun ma'muriy to'siqlarni kamaytirish;

✓ elektron hukumat doirasida elektron davlat xizmatlaridan foydalanish uchun barcha davlat organlari, ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalarini idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmog'iga ulagan holda ushbu tarmoqni rivojlantirish;

Raqamli infratuzilmani rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

✓ Internet jahon axborot tarmog'iga ulanish tariflarini takomillashtirish va optimallashtirish;

✓ geografik joylashuvidan qat'iy nazar, fuqarolarning o'sib borayotgan axborotga ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun keng polosali simsiz va mobil texnologiyalarni yanada rivojlantirish;

✓ iste'molchilarga televizion signalni uzatish, er usti televizion eshittirish, kabel televideniesi, IP-televidenie, ma'lumotlar uzatish tarmoqlari, mobil aloqa, Internet texnologiyalaridan foydalangan holda teleradioeshittirish, televizion va radio xizmatlarining barcha turlarini to'liq qamrab olgan holda raqamli eshittirishni takomillashtirish;

✓ «bulutli» hisoblashlar asosida ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlarini

rivojlantirish, foydalanuvchi talablariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining axborot resurslariga doimiy ulanishni ta'minlash;

✔ bozorning erkin rivojlanishi imkoniyatini saqlab, telekommunikatsiya sohasini rivojlantirish uchun sharoitlarni yaxshilash, biznes yuritish va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish uchun ma'muriy to'siqlarni kamaytirish;

✔ elektron hukumat doirasida elektron davlat xizmatlaridan foydalanish uchun barcha davlat organlari, ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalarini idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmog'iga ulagan holda ushbu tarmoqni rivojlantirish;

Raqamli infratuzilmani rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

✔ mamlakatimiz hududida davlat organlari, jismoniy va yuridik shaxslar uchun axborotni saqlash, qayta ishlash, himoya qilish va elektron davlat xizmatlarining foydalanuvchanligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish;

✔ davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish va elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish doirasida «xizmat sifatida dasturiy ta'minot», «xizmat sifatida platforma», «xizmat sifatida infratuzilma» texnologiyalarini keng joriy etish;

✔ shahar infratuzilmasini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali transport logistikasi, shahar infratuzilmasi, shahar muhitining sifati, shahar rivojlanishini boshqarish samaradorligi, jamoat, biznes va yashash joylari bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun «aqlli» va «xavfsiz» shahar loyihalarini izchil amalga oshirish;

✔ keng polosali ulanishni rivojlantirishning texnologik asosi iste'molchilarga asosiy va qo'shimcha xizmatlarni, shu jumladan texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish xizmatlarini, aholining hayotini qo'llab-quvvatlashda aqlli tizimlarni joriy etishning bir qismi sifatida individual infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga bosqichma-bosqich kirishni ta'minlash uchun yagona infratuzilma yordamida multiservis tarmoqlarini rivojlantirish;

✔ mavjud aloqa (simsiz va optik), simli va simsiz aloqa texnologiyalari va tizimlari, shuningdek, yangi geografik axborot va navigatsiya tizimlarining samaradorligini oshirish yo'llarini o'z ichiga olgan aloqa va navigatsiya texnologiyalarini rivojlantirish;

✔ aloqa operatorlari o'rtasida raqobatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.

2020–2022 yillarda hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish doirasida:

➤ aholi punktlarini Internet tarmog'iga ulash darajasi, shu jumladan keng polosali ulanish portlarini 2,5 mingga ko'paytirish, 20 ming kilometr optik-tolali aloqa liniyalarini qurish va mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish orqali 78%dan 95%ga etkaziladi;

➤ hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida 400 dan ortiq axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etiladi;

➤ 587 ming nafar kishini, shu jumladan «Bir million dasturchi» loyihasi doirasida 500 ming nafar yoshlarni qamrab olish orqali kompyuter dasturlash asoslariga o'qitish tashkillashtiriladi;

➤ iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar joriy etiladi;

➤ hududlarda hokimlar, davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining raqamli savodxonligini va malakasini oshirish, ularni axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi bo'yicha o'qitish uchun tegishli oliy ta'lim muassasalari birlashtiriladi hamda ularning 12 ming nafar xodimi axborot texnologiyalari sohasida o'qitiladi.

Dastlab 29 ta namunaviy tumanlarda (shaharlarda) 2020 yilda va 2021 yil I choragi yakuniga qadar raqamli transformatsiya qilish amalga oshirildi. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, uning tasarrufidagi tashkilotlar va hududiy boshqarmalarining mas'ul rahbarlarini tegishli tumanlarga (shaharlarga) birlashtirildi. Hududiy ishchi guruhlar tashkil etildi va ular har 10 kunlikda loyihalarni amalga oshirish samaradorligi va joylarda o'tkazilayotgan tadbirlarning amaliy ahamiyatini baholadi.

XULOSA

Strategiya doirasida 2020–2022 yillarga mo'ljallangan «Yo'l xaritasi» Strategiya doirasida 2020–2022 yillarga mo'ljallangan «Yo'l xaritasi»da to'rtta asosiy sohani rivojlantirish nazarda tutilgan:

1. Elektron hukumatni rivojlantirish;
2. Raqamli industriyani rivojlantirish;
3. Raqamli ta'limni rivojlantirish;
4. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish.

Elektron hukumatni rivojlantirish:

01.01.2021 yildan boshlab - Tajriba tariqasida «Raqamli Toshkent» kompleks dasturi doirasida jismoniy shaxsga identifikatsiya ID-kartasini berishda davlat organlari va tashkilotlari bilan o'zaro elektron munosabatlarni yo'lga qo'yish uchun uning shaxsiy kabineti shakllantiriladi;

01.07.2021 yildan boshlab - O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portalida davlat organlari va tashkilotlari tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirish, patentlar, dori vositalari va tibbiy buyumlarni ro'yxatga olish, jamoat transporti harakati, er resurslaridan foydalanish va boshqa umumfoydalanishdagi statistik ma'lumotlar onlayn rejimda joylashtirib borilishi ta'minlanadi;

01.08.2021 yildan boshlab - jismoniy va yuridik shaxslarga barcha belgilangan davlat bojlari, yig'imlar, jarimalar va boshqa majburiy to'lovlarni elektron to'lov tizimlaridan foydalangan holda onlayn rejimda to'lash imkoniyati taqdim etiladi.

Raqamli industriyani rivojlantirish:

01.11.2020 yildan boshlab - Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidenti maqomini axborot texnologiyalariga o'qitish, apparat-dasturiy vositalarni ishlab chiqish va realizatsiya qilish, roboto-texnika, Internet tarmog'i orqali axborot xizmatlarini eksport qilish, shuningdek, ma'lumotlarni saqlash va hisoblab qayta ishlash sohasida xizmat ko'rsatadigan O'zR rezidenti hisoblangan yuridik shaxslar olishi mumkin bo'ldi;

01.01.2022 yilga qadar - Masofadan kredit mahsulotlarini realizatsiya qilish, omonatlar va hisobraqamlarni ochishni o'z ichiga olgan keng turdagi onlayn xizmatlar ko'rsatishni ta'minlash orqali tijorat banklarining raqamli transformatsiyasi yakuniga etkaziladi.

Raqamli ta'limni rivojlantirish:

01.01.2021 yildan boshlab - fuqarolar tomonidan tizim boshqaruvi, ma'lumotlar bazasi va «bulutli» platformani boshqarish, axborot xavfsizligini ta'minlash va boshqa talab yuqori bo'lgan yo'nalishlarda xalqaro IT-sertifikatlarni olish xarajatlarining 50%gacha bo'lgan qismini qoplash tizimi joriy etiladi;

01.01.2021 yilga - har bir tuman va shaharda mavjud infratuzilma ob'ektlari negizida keng aholi qatlamlari, ayniqsa yoshlar va ayollar uchun raqamli texnologiyalar o'quv markazlari ochiladi;

2023 yil yakuniga qadar - barcha tuman va shaharlarda o'quvchilarning ijodiy rivojlanishi va kompyuter dasturlash asoslarini o'rganishi uchun

mavjud ta'lim muassasalari negizida 200 dan ortiq informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar bosqichma-bosqich tashkil etiladi.

Raqamli infratuzilmani rivojlantirish:

2022 yil yakuniga qadar - har bir aholi punkti 10 Mbit/sdan kam bo'lmagan ma'lumotlarni uzatish tezligidagi Internet tarmog'iga ulanish imkoniyati bilan ta'minlanadi;

01.01.2022 yilga qadar - barcha mashhur sayyohlik joylari yuqori tezlikdagi Internet bilan ta'minlanadi.

Strategiyada belgilangan vazifalarni amalga oshirish orqali quyidagi natijalarga erishish rejalashtirilgan:

- yuqori tezlikdagi Internet jahon axborot va mobil aloqa tarmoqlaridan sifatli, xavfsiz, arzon va oqilona foydalanish;

- aloqa va telekommunikatsiyalarning ochiq va raqobatbardosh bozori;

- barcha ijtimoiy ob'ektlarni Internet jahon axborot tarmog'i bilan ta'minlash;

- respublika bo'ylab optik tolali aloqa tarmog'ining uzunligini kengaytirish;

- aholi punktlarini yuqori tezlikdagi aloqa texnologiyalari (4G va b.) bilan qamrab olish darajasini oshirish;

- shaharlar va qishloqlar o'rtasidagi raqamli tafovutni kamaytirish;

- elektron hukumatni rivojlantirish xalqaro reytingida eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirish;

- elektron davlat xizmatlari ulushini oshirish;

- elektron davlat xizmatlariga ishonchni mustahkamlash, aholining davlat organlari bilan xavfsiz va oson o'zaro hamkorlik qilishini ta'minlash;

- davlat, biznes va aholining ehtiyojlariga qarab, hisoblash quvvatini samarali taqsimlash va undan foydalanish;

- respublika bo'ylab kommunal sohada elektron hisoblagichlar ulushini oshirish;

- an'anaviy qog'oz yoki elektron hujjatga nisbatan elektron yozuvning ustunligi;

- dasturiy mahsulotlarning eksport hajmini kengaytirish;

- IT-parkda rezidentlari sonini oshirish;

- investisiya muhitini yaxshilash, axborot texnologiyalari sohasida investitsiyalar samaradorligini oshirish;

➤ aholining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish;

➤ aholining barcha qatlamlari uchun axborot texnologiyalari sohasida ta'lim olish bo'yicha keng imkoniyatlarining mavjudligi;

➤ axborot texnologiyalari sohasidagi professional kadrlar zaxirasining, shu jumladan boshqaruv kadrlari zaxirasining mavjudligi;

➤ IT-yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari sonini oshirish;

➤ respublikaning barcha tumanlarida (shaharlarida) raqamli texnologiyalar o'quv markazlarini tashkil etish.

“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida

Davlat boshqaruvida axborot tizimlarini joriy etish

➤ «Mahalla» yagona axborot tizimi;

➤ «Ijtimoiy himoya» yagona reestri;

➤ «FHDYo yagona elektron arxivi» axborot tizimi;

➤ «Raqamlashtirish darajasini baholash» axborot tizimi;

➤ «Xalq deputatlari mahalliy kengashlari faoliyatini boshqarish» axborot tizimini joriy qilish;

➤ «Yo'l xaritalarini» boshqarish axborot tizimi joriy etish;

➤ «Investisiya loyihalari monitoringi» axborot tizimi;

➤ Tashqi yoritish chiroqlarini boshqarishni avtomatlashtirilgan axborot tizimi;

➤ «E-Mehmon» axborot tizimi;

➤ «Bozor narxi» axborot tizimi;

➤ «Hudud» axborot tizimi;

➤ «Fuqaro nazorati» axborot tizimi;

➤ «I-Ko'mak» - Saxovat monitoring tizimi;

➤ «Elektron hokimiyat» namunaviy axborot tizimi va boshqalar.

[7] <https://lex.uz/docs/4800657>

[8] <https://lex.uz/docs/5030957>

REFERENCES

[1] <https://digitalkz.kz> - Raqamli Qozog'iston rasmiy sayti.

[2] <https://d-russia.ru>- Raqamli Rossiya rasmiy sayti.

[3] <https://www.gov.uk> - Raqamli Buyuk Britaniya rasmiy sayti.

[4] my.gov.uz - Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali

[5] <https://my.gov.uz/oz/site/statistic-page>

[6] <https://lex.uz/docs/3454989>